



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Egamberdiyeva. N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Novoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashryoti. 2009-y.121- b
2. Свенцицкий А.Л. Социальная психология: Учебник.— М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. - 72с.
3. Мерлин В.С. Развитие личности в психологическом конфликте/ В.С.Мерлин, З.Фрейд // Личность и о-во. – Пермь, 1990.

INNOVATION TEXNOLOGIYALAR TIL O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Alimova Madina

ToshDO'TAU tadqiqotchisi,

O'zbekiston

Telefon: +998951892288

alimad.2025@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali til o'qitish jarayonini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar yordamida o'qitish tavsiya etiladi. Multimedidan foydalanish mavzuni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Kalit so'zlar: Til, multimedia, pedagogik texnologiya, innovatsiya, o'zbek tili, video dars, onlayn madaniy sayohat

Аннотация: С целью оптимизации процесса обучения языку с помощью современных педагогических технологий рекомендуется обучение техническими средствами. Применение средств мультимедийных технологий повышает эффективность освоения темы .

Ключевые слова: Язык, мультимедиа, педагогические технологии, инновации, узбекский язык, видео урок, онлайн культурный тур

Abstract: In order to optimize the language learning process with the help of modern pedagogical technologies, it is recommended to teach using technical means. The use of multimedia technologies increases the efficiency of mastering the topic.

Key words: Language, multimedia, pedagogical technologies, innovations, Uzbek language, video lesson, online cultural tour

Kirish

Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog'liq. [4,196] Sifatli ta'lim berish maqsadida ta'limga innovatsion texnologiyalar kirib keldi va doimiy rivojlanishda. AKTdan foydalanish imkoniyatlari kundan kunga oshmoqda. Ta'limning boshqa metodlari bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yuqori natijalar beradi, chunki kompyuterning ovoz, matn, grafika, rasm, animatsiya, video, interaktiv muloqot kabi vositalari ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarini faollashtiradi. [1,27]. Til o'rgatish jarayonida an'anaviylikdan uzoqlashib integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuvlarga murojaat qilinmoqda. Yuqoridagi yondashuvlar asosida o'qitish bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalar ("Zamonaviy pedagogik texnologiya"

bilimli bo'lishni, iste'dodni rag'batlantirishni nazarda tutgan, o'quv-tarbiya jarayonini san'at, mahorat darajasiga ko'tarishga imkon yaratadigan, ta'lim sohasidagi barcha islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. [4,201]) dan foydalanish hamda kompyuter imkoniyatlarini qo'llash til o'rganish samarasini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Andragogik ta'limda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha bir qator jahon va o'zbek metodistlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ushbu yo'nalishdagi qarashlar X.Ismatullayev "Самоучитель узбекского языка", I.Kissen, Sh.Rahmatullayev "Узбекский язык для взрослых", S.Adilova, M.To'xtamirzayev "O'zbek tili", G.Bakiyeva va boshqalar "Узбекский язык для стран СНГ", N.Azimova "Uzbek. An elementary textbook", X.S.Muxitdinova, D.M.Nasilov "Учебник узбекского языка", G.Rixsiyeva, M.Abduraxmonova "O'zbek tili: xorijliklar uchun intensiv kurs", D. Tosheva, A.Axmedov "Bukhara. Uzbek language for foreigners", U.Begimqulov "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari", F.Zokirov va boshqalar "Elektron o'quv majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi", A.Abduqodirov, A.X.Pardayev "Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti" va boshqalarning tadqiqotlarida, darslik va qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan.

Muhokama

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishga oid bir qancha tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi ko'tarilgan. Masalan S.Adilovaning "O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish" nomli nomzodlik dissertatsiyasida oliy ta'limning rusiyzabon talabalariga o'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning samarali ekanligi asoslab berilgan. Bir qator olimlar, metodistlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rt dan bir qismini, ko'rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa, axborotlarning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganida esa, bu ko'rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi [1,27]. Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish tavsiyasi yangi emas lekin texnika asrida u yangilanib, mukamallashib bormoqda hamda o'z aktualligini yo'qotmayapdi. Multimedia "inson-kompyuter" interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalari asosida o'quvchi, talabalariga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Mutaxassislarning fikricha, multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. [1,27]

Natijalar

Har bir mavzu bo'yicha yangi materiallarni tushuntirish, ko'rib chiqish va mustahkamlash uchun ko'proq videodarslardan foydalanish samarali. Videodarslardan foydalanishning afzalligi shundaki, siz ko'rgazma davomida pauza

qilishingiz, koʻrgan narsalaringizni muhokama qilishingiz va oʻquvchilarga savollar berishingiz mumkin.

Videodarslarni yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maqsadni aniqlash;
- mundarija tuzish va rejalashtirish;
- dasturiy mahsulotni tayyorlash;
- tayyorlangan dasturiy mahsulotdan foydalanish va samaradorlikni aniqlash.

Bugungi kunda videodarslardan foydalanish ancha ommalashib boryapti. Ayniqsa, oʻquv markazlari tomonidan tayyorlanib borilayotgan videodarslarni bunga misol keltirish mumkin. [3.159]

Onlayn madaniy sayohat. Ushbu metod nafaqat til oʻrganuvchilar, balki madaniyatimiz tadqiqotchilari, oʻzbek madaniyatiga qiziquvchi keng xorijliklar uchun ham samarali hisoblanadi va soʻnggi yillarda yaratilgan internet imkoniyatlari natijasida oʻzbek tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda madaniy bilim va koʻnikmalarni singdirish uchun ham qoʻllanilmoqda. Bu metod mikrolog, madaniy assimilatör va boshqa bir qator metodlar qorishmasidan iborat boʻlib, alohida madaniyat darsi shaklida tashkil qilinadi. Odatda, dars boshida bir yoki bir nechta mavzu tanlanadi va mavzu doirasida madaniy koʻnikmalar va bilimlar qiyosiy yondashuv asosida oʻrganiladi. Bu metoddan S.Xasanov rahbarligida qardosh turk oʻrganuvchilari bilan hamda ustoz S. Adilova rahbarligida Arizonadagi ingliz oʻrganuvchilari bilan tashkil etilgan darslarda foydalandik. Hozirda Angilyadagi oʻzbek elchixonasi qoshida tashkil etilgan madaniyat markazida ham masofaviy madaniy sayohat darslari tashkil etilmoqda va ishtirokchilarda katta qiziqishga sabab boʻlmoqda. [2,47]

Xulosa

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi tavsiyalarni oʻzbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida oʻqitish jarayoniga tadbiq etish mumkin. Dars davomida texnikaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish samarali natijalar beradi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Adilova S.A. Oʻzbek tili magʻulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish: Ped.fan.nom. ...dis.-Toshkent, 2004.
2. Isrofilova D.O. Oʻzbek tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda madaniyat aspektidan foydalanish metodikasini takomillashtirish: mag.dis.-Toshkent, 2022
3. Ona tilini oʻqitishda videodarslardan foydalanish xususida/maqola. Global taʼlim va milliy metodika taraqqiyoti mavzusidagi IV anʼanaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
4. Yuldasheva D.N. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) :darslik/Durdona nashriyoti 2021-424 b.